

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

### **O'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishning dastlabki kommunikativ me'yorlari**

***Eshqulov.S.A***

**Annotatsiya:** Bugungi kunda insonlar o'rtasida nutq madaniyatini shakllantirish ta'lim tizimimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun dastlab islohotlarni maktab tizimidan boshlab amalga oshirish kerak. Shu bois o'quvchilarga madaniy nutq qonun-qoidalarini o'rgatishning ko'plab samarali usullari tahlil qilinmoqda.

**Kalit so'zlar:** Nutq madaniyati, matiqiylik, ifodaviylik, orfografiya, sinonimlar, paronimlar, sintaktik me'yorlar.

Nutq bu insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi hiosblanadi . Nutqning asosiy maqsadi biror axborot yetkazish. Bugungi kunda o'quvchilar o'rtasida nutq madaniyatini o'stirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Madaniy nutq insonning bilim va tafakkurini yuqoriligidan dalolat beradi. Madaniy nutqni shakllantirish uchun o'quvchilar bilan yoshlikdan chuqur shug'ullanmoq kerak. Tilimiz qancha chiroyli va ravon bo'lsa bu bizning nutq madaniyatimizdan darak beradi. Bu fikrimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin".

Nutq madaniyatini shakllantirishning oltita kommunikativ sifatlari mavjud:

- 1.To'g'rilik;2.Aniqlik;
- 3.Mantiqiylik;
- 4.Ifodalilik;
- 5.Boylik;
- 6.Soflik;7.Jo'yalik.[1]

Yuqorida sifatlarni jamlagan nutq madaniy nutq hisoblanadi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

O'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirish uchun, dastlab biz, pedagoglar, o'zimiz bu me'yorlar haqida chuqur bilimga ega bo'lishimiz va uni amalda qo'llay olishimiz kerak. Masalan, eng birinchi va muhim me'yor bu nutqning to'g'riliги hisoblanadi. Chunki qolgan beshta sifat nutq to'g'riliги mavjud bo'lsagina, amalgalashirilishi mumkin. Nutni to'g'ri tashkil qilish uchun esa, avvalo, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilmoq kerak. Hozirda adabiy tilimizda bir qancha me'yorlar mavjud: a) so'z qo'llash me'yorlari; b) talaffuz me'yorlari; c) so'z yasalish me'yorlari; d) morfologik me'yorlar; e) sintaktik me'yorlar; f) uslubiy me'yorlar. [2]

Dastlab so'z qo'llash me'yoriga to'xtalsak, bu me'yorni o'quvchilarga o'rgatishda ularga so'zlarning atash ma'nolarini, sinonimlardan o'z o'mida foydalanishni, paronimlarni to'g'ri qo'llashni chuqur o'rgatish kerak. So'zlarni to'g'ri qo'llash uchun ularning atash ma'nosini yaxshi bilish kerak. Masala, bir masala yuzasidan talashib qolishdi desak xato bo'ladi, aksincha, bir masala yuzasidan tortishib qolishdi desak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Sinonimlardan ham o'rinli foydalanish muhim omil hisoblanadi. Chunki har bir sinonimning o'z ishlatalish o'rni, o'z uslubiy xususiyati mavjud bo'ladi. Nutq to'g'riliгини eng muhim qoidalarini biri bu orfografiya (to'g'ri yozish) qoidalaridir. [3]

O'quvchilarga mактабдан imloviy savodxonlik ko'nikmalalrini o'rgatishning ikki xil yo'llari ilgari surilgan. Birinchidan, o'quvchilarga turli xil mashqlar va testlar orqali imlo ko'nikmalarini o'rgatish, bu mavzularni yil davomida takrorlab turish mumkin. Mashq va testlarni faqat imlo qoidlari mavzusida emas, boshqa mavzularda davomida ham berib borish, o'quvchilarda imloviy savodxonlik ko'nikmalarini borgan sari mustahkamlab boradi. Imloviy savodxonlikni rivojlanitishning ikkinchi yo'li sifatida esa zamonaviy interfaol metodlar va topshiriqlar qo'llash ilgari surilgan. Chunki bu metodlar o'quvchilarda imloviy savodxonlik ko'nikmalarini o'stirish bilan birga, ularda shaxsiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Zamonaviy metodlar orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqish ortadi. Bu esa ularning mavzuni yaxshi tushinishiga va eslab qolishishiga yordam beradi. Bu metodlar har bir darsni o'ziga xos usulda o'tishga,

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

o'quvchining fanga bo'lган qiziqishini yanada orttirishga, uning ko'nglida ilm-fanga bo'ldan ishtiyoyqini yanada o'sishiga yordam beradi. Zamonaviy pedagogika hozirgi davr didaktikasi va pedagogikasining taraqqiyot mahsulidir. [4]

Tilimiz chiroyli bo'lishi bilan bir qatorda bizning yozuvimiz ham chiroyli va xatosiz bo'lishi kerak. Buning uchun esa imloviy savodxonlikni rivojlantirish zarur. **Har bir fuqaro davlat tilida to‘g‘ri so‘zlab, to‘g‘ri yoza olsagina fuqarolik burchini his etgan, yurt qismatiga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotgan bo‘ladi. Qolaversa, bu millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, yuksak ma'naviyatimizning muhim belgisi — savodxonlik darajamizga bog‘liq. Savodxonlik esa ikki asosga tayanadi. Bu og‘zaki va yozma nutq madaniyatiga to‘la va to‘g‘ri amal qilishdir.** [5] Imloviy xatosiz yozishimiz uchun esa bizda imlo qoidalari bo'yicha bilimimiz yetarli darajada bo'lmos'i kerak. Imlo qoidalalarini yoshlarga bolalakidan o'rgatib borishimiz zarur. Ayniqsa, mакtab o'quvchilariga imlo qoidalarni, to'g'ri yozish ko'nikmalarini maktab bosqichidan mukammal o'rgatib borilsa, ularda bu ko'nikma yaxshi shakllanadi. Kelgusida o'quvchilar to'g'ri va ravon yozishi o'zlariga odat qilib oladi. Shundagina imloviy xato yozishlar ham borgan sari kamayib boradi, tilimiz yanada jozibasi oshadi, ko'cha-ko'ydagи xato yozuvlarga ham ko'zimiz tushmaydigan bo'ladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2019.
2. Mahmudov N., Odilov.Y., Ziydullayeva.G Ona tili.11-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2018.
3. A.Nurmonov., A. Sobirov., N.Qosimova Hozirgi o'zbek adabiy tili.Akademik litseylar uchun darslik. – T.:Ilm Ziyo, 2010.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq\\_madaniyati](https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq_madaniyati)
5. [https://notiq.uz/notiqlik san'ati](https://notiq.uz/notiqlik_san'ati)